

**INGLIZ TILIDAGI MATNNI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH
JARAYONIDA YUZAGA KELGAN LEKSIKOLOGIK VA
GRAMMATIK O'ZGARISHLAR TAHLILI**

*Usmonova Sevara Sultanovna - Farg'ona davlat universiteti,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, Phd ,dotsent.*

*Abdurashidova Bumaryam Kamoliddin qizi
Farg'ona davlat universiteti ingliz tili va adabiyoti fakulteti talabasi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada J.K.Rouling tomonidan yozilgan—”Garri Potter”romanlar turkumidagi “Garri Potter va mahfiy hujra” romanini ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjimasi jarayonida yuzaga kelgan leksikologik va grammatik o‘zgarishlar va ularning mohiyatiga lingvistik nuqtai nazardan kitobxonning uni anglashi uchun ta’sir qiluvchi omillarni hisobga olgan holda tahlil qilingan. Obyekt sifatida tanlangan ismlar to‘qima bo‘lgani tufayli personajlarning ismlaridan oldin ularning asardagi vazifasi hamda xarakteri o‘ylab topilgani, so‘ngra uni lingvistik qoliplarga solingan. Shu tufayli maqolada tarjimon ularni o'zbek tiliga o'g'irishdan oldin etimologik, leksikologik, semantik va fonetik tahlil qilishi uchun qoliplar taklif qilingan.

Kalit so‘zlar: antroponimlar, transliteratsiya, ingliz-o‘zbek tarjima, leksikologiya fonetika, orfografiya, grammatika

KIRISH

Leksik muammolar har doim tarjimaning eng markaziy nuqtalaridan biribo'lib kelgan: biz tarjimaning onomastik muammolari sifatida atama doirasinicheklashimiz kerak. J.K.Rouling tomonidan yozilgan—”Garri Potter”romanlar turkumidagi “Garri Potter va mahfiy hujra” romanini tarjima qilish jarayoni shuqadar, inson satrlarga chuqur kirib, notiq munozaraliki kuchli stilistika olamida yashashi mumkin. Romanning so‘z qurilishi oldiga ulkan izlanish va tahlillarni talab qiladigan ulkan vazifalarni qo‘ydi.Asarni tarjima qilish jarayonida yuzaga kelgan leksikologik va grammatik o‘zgarishlarni tahlil qilish va ularni o‘zgarishlarnio‘rganish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Leksikologiya (leksika va logiya) — tilshunoslikning til lug‘at tarkibi, ya’nimuayyan bir tilning leksikasini o‘rganuvchi bo‘limi. Leksikologiyada har bir so‘zni yolg‘iz holda emas, balki boshqa so‘zlar bilan bog‘liq holda o‘rganadi. Leksikolgiya tilshunoslikning leksikografiya, frazeologiya, semasiologiya yoki semantika, etimologiya, stilistika hamda so‘z yasalishi haqidagi ta’limot kabi sohalari bilan chambarchas bog‘liq. Leksikologiyaning asosiy muammolaridan biri so‘zning mustaqil til birligi sifatida mavjudligi masalasidir. Leksikologiyada so‘zlarning ma’no

jihatdan o'zaro bog'langan, ya'ni monosemiya, polisemiya, sinonimiya, antonimiya, suz ma'nolarining erkin yoki bog'liq holda bo'lishi kabi masalalari ham o'rganiladi. Leksika muayyan bir tizim sifatida ko'rilganda, so'z ma'nolari va tushunchalarning o'zaro bog'liq holda bo'lishi ko'zda tutiladi.

Grammatika bu tilning grammatik tuzilishini, ya'ni so'zlarning shaklga ega bo'lish qonuniyatlarini, shuningdek, so'z birikmalari va gaplarni tuzish qonuniyatlarini o'rganadigan bo'limi. Grammatika 2 qismdan — morfologiya va sintaksisdan iborat. Morfologiyada so'zning grammatik turkumlari va morfologik kategoriyalar, so'z shakllari, sintaksisda esa so'z shakllarining gap tarkibida o'zaro birikish yo'llari, uning kategoriyalari, gapning tuzilish turlari bayon qilinadi. Demak, Grammatikada so'z shakli, grammatik ma'no, grammatik shakl, grammatik kategoriya, ran va uning kategoriyalari haqidagi tushunchalar markaziy o'rinni egallaydi. Tilda o'zining doimiy ifodalovchisiga ega bo'lgan, so'z shakli va gapga xos umumlashgan ma'no grammatik ma'no sanaladi. Ma'lum grammatik ma'noni ifodalash uchun xizmat qiladigan moddiy vosita grammatik shakl hisoblanadi. Grammatik shakllarni grammatik kategoriyani tashkil etgan unsurlar deyish mumkin. Aslida grammatik shakl deganda, ma'lum grammatik ma'noning moddiy tomoni tushuniladi. Grammatik shakl grammatik kategoriyani tashkil etgan qismlarning bir tomonini — shakliy tomonini ifodalaydi.

NATIJALAR

Bizning ishimizning maqsadi J.K.Rouling ijodiga mansub “Garri Potter va Alanga kubogi” romanining ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida yuzaga kelgan leksikologik va grammatik o'zgarishlarni tahlil qilish o'ziga xos nomlarni (antroponimlarni) o'rganishdir. “Garri Potter va mahfiy hujra”romaning qahramonlar nomini qo'yishning o'ziga xos xususiyatlari va qoliplarini tahlil qilish va aniqlash muallif niyatini to'liqroq ochib berish, muallif uslubining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.Asarda ismlarning ma'nolari, qahramon nomi va uning xarakter funksiyalari o'rtasidagi bog'liqlik, shuningdek, qahramonlarning bir-biriga munosabati o'rganildi. Mazkur maqolada “Garri Potter va mahfiy hujra” asari tarjimasi jarayonida antroponimlar, toponimlarning, grammatik va leksikologik til birliklarining tahlili ko'rib o'tildi. Bunda antroponimlarni, toponimlarni va matnlardagi sintaktik birliklarning leksikologik va grammatik tahlili, asarda tutgan o'rni, xarakteri, morfologik ma'nosi ko'rib chiqilgan va o'zbek tiliga ularni tarjima qilish masalalari hamda tarjima jarayonida yuzaga kelgan muammolarga yechimlar taklif etilgan

MUHOKAMALAR

O'zbek tili lug'at boyligining kattagina qismini insonlarga qo'yiluvchi maxsus nomlar tashkil etadi. Kishilarning atoqli otlari fanda antroponimlar deb yuritiladi. Antroponim (lotincha: antropos - odam, onima - ism, nom) kishi nomi demakdir Kishi nomlariga xos xususiyatlarni o'rganuvchi onomastikaning bir bo'limi

antroponimikadir. Antroponimlar til lug'at tarkibida o'z o'rniga va tizimiy xususiyatlariga ega. Yuqorida qayd qilinganidek, har bir onomastik tizim yana mayda tizimchalarga bo'linadi. Jumladan, atoqli otlar sistemasiga kiruvchi antroponimlar ham o'z navbatida boshqa mayda sistemalarga bo'linadi. Bular quyidagilar:

1. Ismlar;
2. Familiyalar;
3. Ota ismlari;
4. Taxalluslar;
5. Laqablar

Toponimika (yun. topos — joy va onyma — ism, nom) — jo'g'rofiy nomlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi, o'zgarishi, va to'g'ri yozilishini o'rganuvchi fan. Geografik atoqli nomlarni, ularning paydo bo'lishi yoki yaratilish qonuniyatlarini, rivojlanish va o'zgarishini, tarixiy etimologik manbalari va grammatik xususiyatlarini, ularning tuzilishini, tarqalish hududlari hamda atalish sabablarini o'rganuvchi bo'lim. Muayyan bir hududdagi joy nomlari majmui — toponimiya, alohida olingan joy nomi esa toponim deb ataladi. Toponimlar ham, til leksikasining bir qismi sifatida boshqa hamma so'zlar singari til qonuniyatlariga bo'ysunadi, lekin o'zining paydo bo'lishi va ba'zi ichki xususiyatlari jihatidan jamiyatning kundalik moddiy va ma'naviy holati, iqtisodiy turmushi, orzu va intilishlariga aloqador bo'lib, ma'lum darajada boshqa guruh so'zlardan farq qiladi.

Har bir tarjimon o'zga tildagi asarlarni tarjima qilar ekan, tarjima jarayonida turli leksik va grammatik hamda boshqa muammolarga duch kelishi tabiiydir. Tarjimonlar bu kabi muammolarni yechishda eng ma'qul variant transformatsiyalar deb biladi. Chunki o'zga tildagi asarlarda foydalanilgan ismlar, joy nomlari va boshqa nomlar o'z holicha qo'llanilsa ularni o'qish va tushunishda o'quvchilar bir qancha muammolarga duch keladi. Asar bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilinganda asliyat tilidagi birliklar ikkinchi tilga tushunarsiz bo'lib qolishi mumkin. Asardagi bu muammoni yechish uchun transliteratsiya usulidan keng foydalaniladi. Roman antroponimlarini asliyat tilidan tarjima tiliga o'girish jarayonida yuzaga kelgan muammolarni ko'rib chiqamiz: Garri Potter (Harry Potter) - Garri Potter ikki sababga ko'ra tanlangani aytiladi: birinchidan, muallif - J. K. Rouling yoshligida bu ismni yoqtirar edi, ikkinchidan, "Garri" qadimgi Anglo-sakson tilida "kuch-qudrat" degan ma'noni anglatadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, nomlar tarjimaning fonetik bo'limlari bo'yicha ham tahlil qilinadi. "Garri" o'zbek tilida magnit bo'lmagan "hari" deb o'qiladi. Asl nusxani tanlashni tasavvur qilib, uning qanday bo'lishini ko'rish mumkin. Germiona (Hermione) - "Germiona" bilan bogliq boshqa muammoli holatlar ham bor. Romandagi uchta do'stdan biri Germiona jasur, aqlli va aqlli qahramon bo'lib, qolgan ikkitasini chekinmaslikka undaydi. Ehtimol, Germiona uchun "Tosh" ma'nosi haqiqatan ham mos keladi. Boshqa ma'nosi - gulning bir turi va yunon mifologiyasida

“Germes” soʻzining erkak versiyasi kuchli sehr ustasi sifatida mashhur. Fonetik muammo shundaki, bu soʻz oʻz shaklini “Germiona”ga oʻzgartirib, oʻzbekchaga aylantirgan. “Germiona” versiyasi Ruscha “Гермиона” dan olingan. Hagrid (Hagrid) - Ispan va dunyoning boshqa tillarida Xagrid yoki Hagrid deb tarjima qilingan. Faqat Bayukken va norveg tilida “Gaigrid” va “Gygrid” sifatida.

Ismning kelib chiqishi oʻz tarixiga ega. Muallif uni bahaybat odam sifatida taʼriflaydi, “toʻr”, “ha” “yarim” uchun qisqartirilgan deb aytiladi. Natijada, “yarim gigant” degan maʼnoni beradi. Severus Sneyp - Garri Potterning birinchi kitobida “oʻgʻri”ga oʻxshab koʻrinadigan salbiy, pessimist shaxs. Koʻrinib turibdiki, “e” talaffuz paytida deyarli oʻqilmaydi, “a” monoftongi “ei” tarzida talaffuz qilinadi. Bu ingliz unllarining 13-monoftongi: Sneyp [Sneyp], make [meik]. Keyt [keit] va boshqalar. Chunki u birinchi kitobni rus tiliga tarjima qilgan va u oʻsha tilda “Северус Снегг”dek boʻlgan. Oraliq tarjimaning kamchiliklaridan biri bu. “Professor Kvirrel” “qoʻrqinchli” va “jahldor” degan maʼnoni anglatuvchi “querulous” soʻzidan kelib chiqqanligi aytiladi. Muallif ismni xayoliy ravishda yaratganini daʼvo qiladi. Baʼzilarning aytishicha, bu “squirrel” – “quirrel” dan “s” ni olib tashlaganidan keyin paydo boʻlgan. Ingliz tilda: “What is the difference, Potter, between monkshood and wolfsbane” Oʻzbek tilida: Potter, koʻk gunafsha bilan koʻk ayiqtoʻvon oʻrtasida nima farq bor?” Ingliz tilida: “Potter!” said Snape suddenly. “What would I get if I added powdered root of asphodel to an infusion of wormwood?” Oʻzbek tilida: Potter! - kutilmaganda ovoz berdi professor, - Tilla gulning tuyilgan ildizi shuvoq damlamasiga solinsa nima boʻladi?” Ingliz tilida: “Mr. and Mrs. Dursley, of number four, Privet Drive, were proud to say that they were perfectly normal, thank you very much.” Oʻzbek tilida: “Prayvt Drayv koʻchasi 4-uyda yashovchi janob Durzley hamda uning rafiqasi ahvollarini aytishdan mamnunlar.”

Ingliz tilida: “At half past eight, Mr. Dursley picked up his briefcase, pecked Mrs. Dursley on the cheek, and tried to kiss Dudley good-bye but missed, because Dudley was now having a tantrum and throwing his cereal at the walls.” Oʻzbek tilida: Soat - 8:30. Janob Durzley portfelini oldi, ayolining yuzidan oʻpib qoʻydi, va nonushtasini injiqlik qilib, devorlarga sachratayotgan “yuvosh” oʻgʻli bilan xayrlashib ishga otlandi. Umumlashtirish tarjimonlarga katta yordam berishi daʼvo qilinadi. Ushbu misol fikrning eng yaxshi isbotidir. “Don” ni “nonushta” ga oʻzgartirish - bu umumlashma.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda ingliz tilidan oʻzbek tiliga tarjima qilishda transkripsiya, transliteratsiya, izohlash, tushuntirish, sharhlash, muqobil variantlardan foydalanish kabi tarjimada keng foydalaniladigan usullar eng samaralilari hisoblanadi. Bunday usullarni qoʻllashda tarjimonlar asosan kontekstning oʻrniga, asar muallifining mazkur til birliklarini ishlatishdan koʻzlagan maqsadiga eʼtibor berish talab qilinadi. Asl nusxa bilan tarjima tili bevosita bir biriga teng emas. Har ikki tilning lisoniy imkoniyatlari

bir-biriga "ekvivalentlik holatida bo'lmaydi. Shuning uchun ham ko'r- ko'rona tarjima qilish mumkin emas. So'zlarning aniq mazmuni bilan estetik sifatlari o'zaro bir-birining o'rnini qoplay olmaydi. Shu sababli matnning tili qanchalik serma'no, badiiy tarafidan serjilo bo'lsa, tarjima shunchalik qiyinlashadi." Ammo yuqorida taklif tilgan yechimlar orqali asar tarjima qilish ancha samarali va mazmunli bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kamoljonovich, Solijonov Juraali. "JK ROULINGNING FANTASTIK ASARLARIDAGI ANTROPONIMLARNING LINGVO-PERSPEKTIV MUAMMOLARI." Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS) 2.1 (2022): 334-343. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Топонимика>
2. Jo'ramurodova, Z., & Solijonov, J. (2022, April). JK ROULINGNING "BIDL QISSANAVIS ERTAKLARI" ("THE TALES OF BEEDLE THE BARD") ASARIDAGI ANTROPONIMLARNING O'ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLARI. In МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ: "СОВРЕМЕННЫЕ ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ПАРАДИГМЫ: ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ТРАДИЦИЙ И ИННОВАЦИЙ II" (Vol. 2, No. 18.03, pp. 554-560). <https://doi.org/10.47100/nuu.v2i18.03.115>
3. Qodirovna, A. Z., & Kamoljonovich, S. J. (2022). JK ROULINGNING, GARRI POTTER VA AFSUNGARLAR TOSHI "ROMANIDAGI SEHRGARLAR OBRAZINI INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING LINGVO-PERSPEKTIV TAHLILI. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(3), 176-180. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-3-176-180>
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Leksikologiya>
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Grammatika>
6. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Antroponimika>
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Топонимика>
8. Sunnatova Sevara Sirojiddin qizi, & Solijonov Juraali Kamoljonovich. (2022). SANDRA SISNEROS QALAMIGA MANSUB "MANGO KO'CHASIDAGI UY" ("THE HOUSE ON MANGO STREET") ROMANIDAGI TOPONIMLARNING INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMASI MUAMMOLARI. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH, 2(4), 258-261. <https://doi.org/10.5281/zenodo.65006539>. Igamberdiyeva Laylo G'ulomjon qizi, & Solijonov Juraali Kamoljonovich. (2022). DAFNA DUMORIER QALAMIGA MANSUB "REBEKKA" ("REBECCA") ROMANIDAGI TOPONIMLARNING INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMASI MUOMMOLARI. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH, 2(4), 316-319. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6504239>
9. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6504239>